



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MUALLIFLIK HUQUQINI CHEKLASH TUSHUNCHASI VA HUQUQIY TABIATI

Alimardanova Iroda Vohid qizi
Sudyalar Oliy maktabi tayanch doktoranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.13375988>

ARTICLE INFO

Received: 14th August 2024
Accepted: 15th August 2024
Published: 18th August 2024

KEYWORDS

Mualliflik huquqi egasi,
mualliflik huquqini cheklash
tushunchasi, ijodiy faoliyat
natijalari, intellektual mulk
ob'ektidan foydalanuvchi,
ijtimoiy boylik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada mualliflik huquqi tizimida asarlardan erkin foydalanish tushunchasi, mualliflik huquqini cheklash tushunchasi va huquqiy tabiatini tartibga solishdan kelib chiqadigan qonunchilikni takomillashtirish masalalariga oydinlik kiritish bilan birgalikda asarlardan erkin foydalanish instituti tarixiga nazar tashlaymiz.

Asarlardan erkin foydalanishni huquqiy hodisa sifatida tahlil qilish uchun mualliflik huquqi tizimida asarlardan erkin foydalanish tushunchasini aniqlash, uning fuqaroviy-xuquqiy vosita sifatida shakllanish xususiyatlarini tahlil qilish va ta'rif berish lozim. Bugungi kunda qonunchiligimizda fan, adabiyot va san'at asarlarining yaratuvchilari, ya'ni ijodkorlarning manfaatlari va ehtiyojlarini ta'minlash va ularning huquqlarini himoya qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Mualliflik huquqi bo'yicha Rim konvensiyasining 15-moddasiga ko'ra har qanday davlat ichki qonunchiligi bilan quyidagi cheklashlarni (asardan erkin foydalanishni) joriy etishi mumkin. Jumladan, asardan shaxsiy maqsadlarda, kundalik voqealarni sharhlashda parchalar ishlatishda, o'z texnika vositalari orqali o'zlarining dasturlarini tayyorlashda qisqa muddatga ovoz yozuvlaridan foydalanish va ilmiy izlanishlar olib borish maqsadlarida foydalanishlari mumkin. BIMT, YuNESKO, Butunjahon mehnat tashkiloti ushbu konvensiyaning ma'muriy vazifasini bajarishda mas'ul tashkilotlar hisoblanadi.

Huquqlarni cheklash institutini tarmoqlararo institut deb hisoblaydigan va konstitutsiyaviy, ma'muriy, jinoyiy, fuqarolik, mehnat va boshqa huquq sohalari normalarini o'z ichiga olgan K. K. Gasanovning¹ pozitsiyasiga qo'shilmaslik mumkin emas. Ushbu g'oyani rivojlantirar ekan, olim hokimiyat va bo'ysunish munosabatlarini tartibga solishini ta'kidlaydi, shuning uchun u huquqiy tartibga solishning bo'ysunuvchi yoki imperativ usulini farqlab ko'rsatadi. Asosiy huquqlarni cheklash ularning ba'zilaridan foydalanishni to'g'ridan-to'g'ri taqiqlash bilan ham, u yoki bu huquqni ma'lum bir huquq mazmunidan chiqarib tashlash, shuningdek, bunday huquqni amalga oshirishning maxsus tartibini belgilash orqali amalga oshiriladi deb hisoblaydi.

Shu bilan birga, mualliflik huquqi cheklovi fuqarolik huquqi cheklanishidan farq qiladi. Buning sababi shundaki, mualliflik huquqini cheklash boshqa shaxslarning asardan qonunda belgilangan hollarda va chegaralarda foydalanishni taqiqlash imkoniyatini cheklashdan iborat.

¹ Гасанов К.К., Стремоухов А.В. Абсолютные права человека и ограничения прав // Правоведение. 2004. № 1. С. 164-173.

Mualliflik huquqida mutlaq huquqlarni cheklash ijtimoiy foydali maqsadga ega bo'lib, ular notijorat maqsadlarda axborot, madaniy ob'ektlar va ta'limni rag'batlantirishni ta'minlashga qaratilgandir.

Mualliflik huquqi fuqarolik huquqining tarkibiy qismi hisoblanib, bevosita fuqarolik-huquqiy normalar bilan tartibga solinadi. Xususan, V.A.Xoxlovning fikricha, "mualliflik huquqi fuqarolik huquqining bir qismi bo'lib, u asarlardan foydalanish va himoya qilish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisi" hisoblanadi². Shuni ta'kidlash kerakki, hech qanday huquq cheksiz emas, shu jumladan mutlaq huquq ham. Davlat bir vaqtning o'zida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vazifalarni amalga oshirishda faqat alohida fuqarolarning emas, balki butun jamiyatning huquqlarini ta'minlashi, himoya qilishi va kafolatlashi shart. Mutlaq huquqlarning cheklanishi, A. V. Tulikov ta'kidlaganidek, mualliflik huquqi egalarining roziligi va ruxsatisiz ijodiy natijalardan foydalanish uchun ma'lum imkoniyatlarga ega bo'lishdan iborat bo'lgan ijobiy qonun bilan foydalanuvchilarning qonuniy manfaatlarini tan olish va rasmiy belgilash natijasidir³. Mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarlardan ta'lim va tadqiqot maqsadlarida adolatli va erkin foydalanish konsepsiyasi butun dunyo bo'ylab mualliflik huquqi qonunlariga kiritilgan. Bu mualliflik huquqi egalarining shaxsiy manfaatlari va talabalar va tadqiqotchilarning bilimlarini kengaytirish uchun mualliflik huquqi bilan himoyalangan materiallardan foydalanishda jamoat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatga erishish uchun amalga oshiriladi. Mualliflik huquqi bilan himoyalangan materiallardan ta'lim maqsadlarida adolatli va erkin foydalanish deyarli butun dunyoda mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunlar tomonidan rag'batlantirilgan va ruxsat etilgan bo'lsa-da, ushbu qonunlarda bunday foydalanish chegaralari aniq belgilanmagan.⁴

Cub'ektiv huquq har doim o'z chegaralari bilan cheklangan bo'lib, ular shartnoma yoki qonun bilan huquqiy munosabatlarning alohida ishtirokchilari yoki umuman jamiyat manfaatlari uchun cheklanishi mumkin. A.I.Abdullin ta'kidlaganidek, bugungi kunda turli davlatlar hududida mualliflar va mualliflik huquqi egalarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini birlashtirish va madaniy, ilmiy va axborot almashinuvidagi to'siqlarni bartaraf etish tendensiyasi mavjud. Ko'pgina sivilistlar ikki guruhga bo'lingan bo'lib, bir tomondan, muallifning manfaatlari himoya qilishni talab qilsalar, ikkinchisi esa aksincha ijtimoiy mulkni ko'paytirish va shu bilan birga asar muallifi bo'lmagan shaxslarning huquqlarini himoya qilishga intiladilar. Boshqa tomondan, jamiyat o'z a'zolarining intellektual faoliyati natijalari orqali nafaqat axloqiy tomonlama, balki ilmiy-texnik taraqqiyotni, iqtisodiy rivojlantirishni xam o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi lozim. Darhaqiqat, huquqshunos olim B.Toshevning fikricha, intellektual mulk huquqiy jihatdan kuchli muhofazaga olinsa, ixtirochilar va ijodkorlar yaratgan ob'ektlardan foydalanishda munosib haq to'lansa, sohaga investitsiyalar jalb qilinsa shu orqali iqtisodiyotni taraqqiy ettirishga erishish mumkin⁵.

Mazkur yo'nalishlarda qonundan chetga chiqish holatlari xalqaro shartnomalar qoidalarida ham nazarda tutilgan. Shunday qilib, 1789-yildagi inson va fuqarolik huquqlari Deklaratsiyasining 4-moddasiga binoan, tabiiy huquqlarni cheklash qonuniy belgilangan

² Хохлов В.А. Авторское право: законодательство, теория, практика. -М.: 2008. -С.6.

³ Туликов А.В. Подходы к формированию ограничений авторских и смежных прав в российском и зарубежном законодательстве в цифровую эпоху // Имущественные отношения в Российской Федерации. 2011. № 7. С. 19.

⁴ Muhammad Masum Billah, City of Toronto – "Fair or Free Use of Copyrighted Materials in Education and Research and the Limit of Such Use", March 2018

⁵ <http://hudud24.uz/intellektual-mulk-kodeksiniqabulqilishfursatikeldi>

chegaralar asosida amalga oshirilishi mumkinligi keltirib o'tilgan⁶. Intellektual mulk huquqida cheklovlar, xususan, intellektual mulk huquqlarining savdo bilan bog'liq jihatlari to'g'risidagi bitimning 13-moddasida belgilangan: "a'zolar asardan odatiy foydalanishga zid bo'lmagan va asossiz ravishda buzilmaydigan ayrim maxsus holatlardagina mualliflik huquqi egasining qonuniy manfaatlari va mutlaq huquqlariga nisbatan cheklovlar yoki imtiyozlarni kamaytiradi."⁷

Gibo Lyusining fikricha, muallifning asarga nisbatan monopoliyasini tan olish va asar egasiga tegishli bo'lgan mutlaq huquqlardan foydalanishni ta'qiqlash bu asardan foydalanmoqchi bo'lganlarning so'z erkinligini cheklash va shunchaki ma'lumot va ma'lumotlardan foydalanmoqchi bo'lganlarning ma'lumotlarga bo'lgan huquqlarini cheklash bilan barovardir deydi. Shuningdek, muallif asaridagi g'oyalar ko'plab sub'ektlarga mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarlardan o'zlarining so'z erkinligi va ma'lumot olish huquqini targ'ib qilish asosida ma'lum bir tarzda foydalanishga imkon berish lozimligini ta'kidlab o'tadi.⁸ Yana bir qiziqarli fikrni Ronan Deazley tomonidan bildirilgan bo'lib, uning ta'kidlashicha, mualliflik huquqi cheklovlari mualliflik huquqi egasining iqtisodiy manfaatlari va boshqalar tomonidan ijtimoiy, madaniy, siyosiy yoki iqtisodiy jihatdan foydali bo'lishi kerak bo'lgan muvozanatni topishga urinishdir.⁹ Albatta, jamoatchilik va mualliflar (va boshqa mualliflik huquqi egalari) o'rtasida yuzaga keladigan manfaatlarining muvozanati mualliflik huquqi bilan tartibga solinishi kerak.

A. Drassinower mualliflik huquqidagi muvozanat tushunchasi bo'yicha olib borgan tadqiqotida ushbu muvozanatni "germenevtik qo'llanma" deb atadi va shu bilan u qonun ijodkorligi va huquqni muhofaza qilish bosqichida boshqarilishi kerak bo'lgan o'ziga xos ko'rsatma sifatida harakat qilishini ta'kidladi.¹⁰ Mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunda manfaatlar muvozanatini topish raqobatdosh tomonlarning manfaatlarini ta'minlashning eng yaxshi usulini topish demakdir. Asardan muallifning ismi-sharifini va olingan manbaini albatta ko'rsatgan holda hamda asardan normal foydalanilishiga zarar etkazmaslik va muallifning qonuniy manfaatlariga putur etkazmaslik sharti bilan quyidagi tarzda erkin foydalanishga yo'l qo'yiladi:

- oshkor qilingan asarlardan asl nusxada va tarjimada ilmiy, tadqiqiy, munozaraviy, tanqidiy hamda reklama bilan bog'liq bo'lmagan axborot maqsadlarida ko'zlangan maqsadga mos hajmda iqtibos olish, shu jumladan gazeta va jurnallardagi maqolalardan parchalarni matbuot sharhlari shaklida takrorlash;

⁶ Декларатсия прав человека и гражданина 1789 года [электронный ресурс].УРЛ: <http://www//лареволутион.ру/десларатион.хтмл> (дата обращения 02.01.2017)

⁷ Intellektual mulk huquqlarining savdo bilan bog'liq jihatlari to'g'risidagi bitim (6-dekabr, 2005 yil tahriri)

⁸ Гибо Л. Характер и объём ограничений и исключения из авторского права и смежных прав в свете общих задач передачи знаний: перспективы их адаптации к цифровой среде, Бюллетень ЮНЕСКО по авторскому праву. 2004. № 1.

⁹ Деазлей Р. Сопйригхт анд Дигитал Султурал Херитаге: Тхе Пермиттед Астс - Эхсептионс то Сопйригхт [Елестронис ресоурсе].

¹⁰ Драссиновер А. Фром Дистрибутион то Диалогуе: Ремаркс он тхе Сонсепт оф Балансе ин Сопйригхт Лав (Септембер 16, 2009) // Жоурнал оф Сорпоратион Лав. 2009. Вол. 34, Иссуе 4. Р. 993.

- oshkor qilingan asarlardan yoki bunday asarlarning parchalaridan ta'lim va o'quv tusidagi nashrlarda, radioeshittirish va teleko'rsatuvlarda, ovozli va video yozuvlarda ko'zlangan maqsadga mos hajmda misollar tariqasida foydalanish;
- kundalik siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va diniy masalalar yuzasidan gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalar yoki efirga uzatilgan yoxud kabel orqali yuborilgan shu tusdagi asarlarni gazetalarda takrorlash, efirga uzatish yoki kabel orqali yuborish, shunday foydalanish muallif tomonidan maxsus taqiqlangan hollar bundan mustasno;
- omma oldida so'zlangan siyosiy nutqlar, murojaatlar, ma'ruzalar va shunga o'xshash asarlarni ko'zlangan maqsadga mos hajmda gazetalarda takrorlash, efirga uzatish yoki kabel orqali yuborish. Bunda ana shunday asarlarni to'plamlarda chop etish huquqi muallifda saqlanib qoladi;
- kundalik voqealar jarayonida ko'rish yoki eshitish mumkin bo'lgan asarlarni ana shunday voqealarning sharhlarida fotografiya yoki kinematografiya vositalari yordamida efirga uzatish yoki kabel orqali yuborish yo'li bilan axborot maqsadiga mos hajmda takrorlash yoki barchaning e'tibori uchun yuborish. Bunda ana shunday asarlarni to'plamlarda chop etish huquqi muallifda saqlanib qoladi;
- daromad olishni ko'zlamagan holda ko'zi ojizlar uchun qabariq nuqtali harflar yoki boshqa usullar bilan chop etilgan asarlarni takrorlash, ana shunday takrorlash usullari uchun maxsus yaratilgan asarlar bundan mustasno.¹¹

Shu sababli, asarlardan erkin foydalanish imkoniyatini ta'minlashda mualliflik huquqining asosiy vazifasi mualliflik huquqi egalari va foydalanuvchilar manfaatlarining adolatli muvozanatiga erishishdir. Ilmiy tadqiqotning bir qismi sifatida biz ba'zi tushunchalarni aniqlashni taklif qilamiz. Ya'ni fuqarolik kodeksi va "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunga "asarlardan erkin foydalanuvchilar" tushunchasini alohida modda qilib kiritishni tavsiya qilamiz. Ushbu moddada ko'zda tutilgan sub'ektlar ro'yxatida nazarda tutilgan shaxslarga mualliflik huquqi egalari ruxsatisiz fan, adabiyot va san'at asarlaridan erkin foydalanish imkoniyati berilishini taklif qilamiz.

Bu foydalanuvchilarga quyidagilar kiradi:

- muallif va boshqa mualliflik huquqi egalari roziligisiz asarlardan foydalanishga qiziqqan jamiyatning alohida sub'ektlari sifatida jamiyat yoki "iste'molchilar";
- kutubxonalar, arxivlar va muzeylar;
- Davlat (Qonunchilik va huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan taqdim etilgan), uning vakolatida turli huquqiy vositalar yordamida ushbu shaxslar guruhlarini manfaatlarini muvozanatini saqlash maqsadida. R. I. Sitdikov ta'kidlaganidek, asarlarning mualliflik huquqi egalari va foydalanuvchilarning ehtiyojlari turlicha bo'lganligi sababli, intellektual faoliyat natijalarini huquqiy himoya qilish sohasida doimiy manfaatlar to'qnashuvi mavjud. Shuningdek, asarlardan erkin foydalanish institutining asosiy vazifasi ushbu manfaatlar mualliflar va boshqa mualliflik huquqi egalari monopoliyasini cheklash va fan, adabiyot, san'at asarlaridan cheksiz ko'p insonlarga foydalanish imkoniyatini berish bilan oqilona uyg'unlashuvidan iboratdir.¹² Asarlardan erkin foydalanish masalasini batafsil o'rganish va amaldagi qonunchilikni baholash uchun ushbu muassasaning shakllanish tarixiga yuzlanish lozim. Shuni ta'kidlash kerakki, birinchi normativ hujjatlar paydo bo'lishidan oldin, mualliflik

¹¹ Ўзбекистон Республикасининг қонуни – “муаллифлик ҳуқуқи ва турдosh ҳуқуқлар тўғрисида”, Қонунчилик палатаси томонидан 2006 йил 23 мартда қабул қилинган, Сенат томонидан 2006 йил 9 июнда маъқулланган, 26-модда.

¹² Ситдикова Р.И. Общественный интерес в авторском праве // Современное право. 2012. № 5. Консультант Плюс: справ.правовая система.

huquqlarining qonunchiligi etarlicha rivojlanmaganligi sababli, barcha fan, adabiyot va san'at asarlari erkin muomalada bo'lgan.

G'arb mamlakatlari qonunchiligida esa asosan ikkita yondashuv ajralib turardi: kontinental (rivojlanish mualliflarning huquqlarini himoya qilish yo'nalishida sodir bo'ldi) va Angliya-Amerika (noshirlarning iqtisodiy huquqlarini himoya qilish kuchaytirildi).¹³ O'zbekistonda mualliflik huquqining shakllanishi asosan kontinental yondashuvga tegishli bo'lib, ammo bizning davlatimizda mualliflik huquqi normalarining rivojlanish tarixi boshqa mamlakatlar tarixidan, birinchi navbatda, ijtimoiy va siyosiy tuzilishning o'ziga xos xususiyatlari, tarixiy rivojlanish va ushbu normalarning kechikib paydo bo'lishi bilan g'arb mamlakatlaridan sezilarli darajada farq qiladi. XX asrning 30-yillarida SSSRda ijodiy uyushmalar vujudga kela boshladi, ularda har biri o'z mualliflik huquqini himoya qilish bilan shug'ullanadigan bo'limlar tashkil etildi. SSSRning 1961 yil 8 dekabrda "SSSR va ittifoqdosh respublikalar fuqarolik qonunchiligi asoslarini tasdiqlash to'g'risida"gi Qonunini SSSR va ittifoq respublikalari fuqarolik huquqining asoslarini qabul qildi va 1962 yil 1 mayda kuchga kirdi. Uning IV bo'limi mualliflik huquqiga bag'ishlandi. 1992 yil 3 avgustda SSSR va ittifoqdosh respublikalarining fuqarolik qonunchiligi asoslari qonuniga (SSSR Oliy Kengashi tomonidan 1991 yil 31 mayda N 2211-1-son bilan tasdiqlangan) birinchi marotaba turdosh huquqlarni muhofaza qilish masalasi kiritilgan. Shu vaqtgacha turdosh huquqlar qonun bilan muhofaza qilinmagan.¹⁴ Tabiiyki, Mustaqillik yillari O'zbekiston ham intellektual mulk tizimini rivojlantirish va uni himoya qilish masalalariga jiddiy e'tibor qaratdi. Ayni maqsadda 1991 yil dekabrda Jahon intellektual mulk tashkilotiga a'zo bo'ldi. Keyinchalik sohaga oid o'ndan ortiq qonunni qabul qildi. Shu sababli ham, normativ-huquqiy bazamizda bu sohada juda ko'p o'rganilishi kerak bo'lgan masalalar va muommolar juda ko'p. Shuni ta'kidlash kerakki, Sobiq Ittifoq davrida mualliflik huquqini himoya qilish tizimi inson huquqi va manfaatlaridan kelib chiqmas edi. O'sha davrdagi huquqiy tizim faqat davlat manfaati uchun xizmat qilar, bunda muallif huquqlari hisobga olinmas edi. Ayrim hollarda markazning roziligisiz asarlarni tarjima qilishga va foydalanishga yo'l qo'yilmasdi. Xorijda tarjima qilingan va nashr etilgan asarlardan keladigan foydaning 40-45 foizi «markaz»da ushlab kolinardi.¹⁵

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qilishga qaratilgan bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Mualliflik huquqiga oid qonunchilik asoslarining yaratilishi davlatimizning ushbu sohadagi xalqaro tashkilot va shartnomalarga a'zo bo'lib kirishida huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. Bu esa ijodkorlarimizga o'z huquqlarini xalqaro huquq normalari doirasida himoya qilish, shuningdek xorijiy mualliflar asarlaridan ham respublikamizda foydalanish imkonini beradi. Shu bilan birga, respublikamizda mualliflik huquqini muhofaza qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri darajasiga ko'tarildi.

Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning 53-moddasida "har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanishi" belgilab o'tilgan. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi."¹⁶ Konstitutsiyamizning moddasida mualliflik huquqi sovet davrida tutib turgan kishanlardan xalos qilinadi. Binobarin, endilikda ijodkor

¹³ Липчик Делия. Авторское право и смежные права. М., 2002. С.33.

¹⁴ <http://muzaffar.uz/huquq-olamida/2719-mualliflik-huquqi.html>

¹⁵ Toshev B.N. «Mualliflik huquqi» bo'yicha ma'ruzalar matni. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Yuristlar malakasini oshirish markazi. –T.: 2012. –B.2

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 53-modda.

muallif qandaydir mafkuralar doirasida cheklab ko'yilishi mumkin emas.¹⁷ Shu nuqtai nazardan mualliflik huquqida eng muhimi bo'lgan asarlardan erkin foydalanishning fuqaroviy-huquqiy tartibini o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Fuqarolik qonunchiligida asarlardan bepul foydalanishning qolgan holatlari fan, adabiyot va san'at asarlaridan foydalanganlik uchun haq to'lashni nazarda tutmaydi. Ta'kidlash joizki, asarlardan erkin foydalanishni amalga oshirishda axloq normalariga rioya qilish, shuningdek asarlardan vijdonan foydalanish orqali ta'minlanishi kerak. Fuqarolik kodeksining 9-moddasiga ko'ra Fuqarolik huquqlarini amalga oshirish boshqa shaxslarning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart. Fuqarolik huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining halol, oqilona va adolat bilan harakat qilishi nazarda tutilishi yozilgan. Ammo moddaning o'zida ham yoki Fuqarolik kodeksiga berilgan sharhlarda ham huquqlardan oqilona va halol foydalanish nisbati va darajalarini anglash qiyin, bu masalaga oydinlik kiritish uchun yana sahnaga sudyalarimiz chiqishadi, ammo ularga asarlardan erkin va halol foydalanuvchining sud majlisida keltirgan asoslarini o'zining kasbiy tajribasiga asosan hal qilishi juda murakkab ekanligini yana bir bor takrorlab o'tamiz.

Shunday qilib, asarlardan bepul foydalanish uchinchi shaxslarning mualliflar va boshqa mualliflik huquqi egalari ruxsatisiz fan, adabiyot va san'at asarlaridan foydalanish imkoniyatidir. Ushbu huquqlarni qo'llashning o'ziga xos shartlariga qarab, ushbu standartlar haq to'lanadigan va haq to'lamagan holda bepul foydalanishga bo'linadi. O'z navbatida, ikkinchisi himoyalangan ishlardan mutlaqo bepul foydalanish va asarlardan nisbatan bepul foydalanishga bo'linadi. Himoyalangan asarlardan mutlaqo bepul foydalanishga faqat qonunni to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatganligi sababli mualliflik huquqi ob'ekti bo'lmagan va mualliflik huquqi ob'ektini himoya qilish shartlariga javob bermaydigan intellektual faoliyat natijalariga nisbatan yo'l qo'yiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Intellektual mulk huquqlarining savdo bilan bog'liq jihatlari to'g'risidagi bitim (6-dekabr, 2005 yil tahriri)
2. Boyle J. "The Public Domain: Enclosing the Commons of the Mind". Greenwich, 2010. 58-bet.
3. Toshev B.N. «Mualliflik huquqi» bo'yicha ma'ruzalar matni. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Yuristlar malakasini oshirish markazi. –T.: 2012. –B.2
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 53-modda.
5. O'zbekiston Respublikasining qonuni – "mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida", Qonunchilik palatasi tomonidan 2006 yil 23 martda qabul qilingan, Senat tomonidan 2006 yil 9 iyunda ma'qullangan, 26-modda.
6. Okyulov O. Intellektual mulkning huquqiy maqomi: Yurid.fanlar dokt.dis. – T.: TDYuI, 2000. –S.144.
7. Sitdikova R.I. Общественный интерес в авторском праве // Современное право. 2012. № 5. Konsultant Plyus: sprav.pravovaya sistema.
8. Липцик Делия. Авторское право и смежные права. М., 2002. С.33.

¹⁷ Okyulov O. Intellektual mulkning huquqiy maqomi: Yurid.fanlar dokt.dis. – T.: TDYuI, 2000. – S.144.